

## IX-XII ASRLARDA O'RTA OSIYO XALQLARI TARIXIDA RO`Y BERGAN UYG`ONISH DAVRI

**Rafiqov Dimmuhammad Xurshidbek o`g`li**

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar va  
san'at fakulteti Tarix yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Annotasiya:** *IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ulkan madaniy-ma'rifiy yuksalish yuz berdi. Bu davrda Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamashariy kabi buyuk allomalar yetishib chiqdi. Ular matematika, astronomiya, tibbiyat, falsafa va boshqa sohalarda muhim kashfiyotlar qildilar. Samarqand, Buxoro, Urganch kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlariga aylandi.*

**Annotation:** *During the IX-XII centuries, Central Asia experienced a great cultural and educational renaissance. This period saw the emergence of outstanding scholars such as Muhammad al-Khwarizmi, Abu Rayhan Beruni, Avicenna, and Mahmud Zamakhshari. They made significant discoveries in mathematics, astronomy, medicine, philosophy, and other fields. Cities like Samarkand, Bukhara, and Urgench became centers of science and culture.*

**Аннотация:** *В IX-XII веках в Центральной Азии произошел великий культурно-просветительский подъём. В этот период появились такие выдающиеся учёные, как Мухаммад аль-Хорезми, Абу Райхан Беруни, Авиценна и Махмуд Замахшари. Они сделали важные открытия в математике, астрономии, медицине, философии и других областях. Города как Самарканд, Бухара и Ургенч стали центрами науки и культуры.*

**Kalit so'zlar:** *Madaniy yuksalish, ilm-fan, matematika, astronomiya, tibbiyat, me'morchilik, tasavvuf, falakiyot, adabiyot, madrasalar, qo'lyozmalar, kutubxonalar, hunarmandchilik, savdo-sotiq, shaharlar rivoji*

**Keywords:** *Cultural renaissance, science, mathematics, astronomy, medicine, architecture, mysticism, astrology, literature, madrasahs, manuscripts, libraries, craftsmanship, trade, urban development*

**Ключевые слова:** *Культурный подъем, наука, математика, астрономия, медицина, архитектура, мистицизм, астрология, литература, медресе, рукописи, библиотеки, ремесло, торговля, развитие городов*

### **Kirish.**

Orta Osiyo tarixi g'oyat boy va serqirra bo'lib, ayniqsa IX-XII asrlar davri alohida ahamiyatga ega. Bu davr O'rtal Osiyo xalqlari tarixida "Uyg'onish davri" yoki "Musulmon Renessansi" deb nom olgan. Mazkur davrda ilm-fan, madaniyat va san'atning barcha sohalarida misli ko'rilmagan yuksalish yuz berdi.

Ushbu uyg'onish davrining vujudga kelishida bir qator muhim omillar mavjud edi:

1. Siyosiy barqarorlik: Somoniylar va Qoraxoniyalar davrida nisbatan tinch va barqaror siyosiy vaziyat yaratildi. Bu esa madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

2. Iqtisodiy rivojlanish: Buyuk Ipak yo'li orqali olib borilgan keng ko'lamli savdo-sotiq, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligining taraqqiyoti davlatning iqtisodiy qudratini oshirdi.

3. Madaniy aloqalar: Sharq va G'arb mamlakatlardan kelgan savdogarlar, sayyoohlar va olimlar bilan bo'lgan madaniy aloqalar ilm-fan va madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

4. Ilmiy muhit: Samarcand, Buxoro, Urganch, Marv kabi shaharlarda tashkil etilgan akademiyalar, kutubxonalar va madrasalar ilm-fan ravnaqiga katta hissa qo'shdidi.

IX-XII asrlardagi Uyg'onish davri O'rta Osiyo xalqlari madaniyati tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar yetishib chiqdi<sup>30</sup>. Jumladan:

- Muhammad al-Xorazmiy (783-850) - algebra fanining asoschisi
- Abu Nasr Forobi (873-950) - "Sharq Aristoteli" deb nom olgan buyuk faylasuf
- Abu Rayxon Beruniy (973-1048) - qomusiy olim
- Abu Ali ibn Sino (980-1037) - tibbiyot ilmining sultoni
- Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) - turkiy tilshunoslikning asoschisi
- Mahmud Zamashariy (1075-1144) - tilshunos va adabiyotshunos olim

Bu davrda ilm-fanning barcha sohalari rivoj topdi:

Aniq fanlar:

- Matematika va algebra
- Astronomiya va falakiyot
- Fizika va mexanika
- Geometriya va trigonometriya

Tabiiy fanlar:

- Tibbiyot
- Farmakologiya
- Mineralogiya
- Geografiya

Ijtimoiy-gumanitar fanlar:

- Falsafa
- Mantiq
- Tilshunoslik
- Adabiyotshunoslik
- Tarix

Fanda "Uyg'onish davri" deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba "uyg'onish" atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o'z asarlarida ishlatiladi. [2, 154-156 b.] "Uyg'onish", "Uyg'onish davri" atamalari XIV -XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq

<sup>30</sup> A.S.Sagdullayev. O'zbekiston tarixi. VneshinVestprom. Toshkent. 2019-yil, 445- 455 b.

antik davr merosini,ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatini qaytadan "tirilishi", uyg'onishi" ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo'llanila boshlandi.Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilar IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini ham "uyg'onish"davr deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek,shartlidir deb hisoblaydilar.[2, 156-158 b.] IX-XII asrloar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi.VIII asrda Arab xalifaligi hozirda O'rta Osiyo deb atalmish hududni fath etib bo'lgan, bosib olingan yerlarda islam dini keng yoyilib, ijtimoiy - iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo'ysindirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islam diniga emas,balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islam dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirshga intilish kuchli bo'lgan.islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashni garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo'lgan ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Mavarounnahrda o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ilm ahli suv va havodek zarur bo'lib qoldi.<sup>31</sup> Davlatni boshqarishda xalifalik ma'muriyati bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar ham oz bo'lib, borlari ham zaif edi. Ilm – fan, madaniyat va san'atda o'ziga xos o'zgarish yasagan qomusiy bilim sohiblari, olim, fozil, barkamol shaxslar ilk o'rta asrlar zamoni Sharq Uyg'onish davri nomi bilan ma'lum. O'zining ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy belgilarga ko'ra bu davr XV – XVI asrlarda G'arbiy Yevropada mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilm – fan, falsafiy tafakkur sohasidagi buyuk yuksalishlar yuz bergan Renessans davriga ham qiyos qilinadi. [1, 446-447 b. ] Sharq renessansi iborasi va fikri ilk bor yevropalik sharqshunos olim A.Mets ning "Musulmon Renessansi" kitobida ilgari surilgan edi. Bu asar IX – X asrlardagi arab xalifaligi tarixiga bag'ishlangan kitob ko'plab olimlarning diqqat e'tiborini jalb qildi.<sup>32</sup> Sharqda uyg'onish davri deganda ko'pchilik olimlar davrning madaniy taraqqiyot sohasidagi muvaffaqiyatlarini nazarga olib, uyg'onish g'oyasini muayyan bir tarixiy davrga xos ilm-fan, madaniyatning yuksalishi dehan ma'noda talqin etadilar.ularning fikricha sharq renessansi insoniyatning madaniy - tarixiy taraqqiyotidagi ana shu yuksalish davrlaridan biridir."Renessans" ( uyg'onish) tushunchasi esa sharqqa nisbatan shartli ravishda qo'llaniladi. Sharq va g'arb uyg'onish davrlaridagi ijtimoiy -iqtisodiy negizlarining turlicha holatlarini ko'rsatish bilan birga IX-XII asrlarda sharq musulmon mamlakatlaridagi uyg'onishning yevropa renessansi arafasida jahon

<sup>31</sup> A.R.Muhammadjonov O'zbekiston tarixi ( IV – XVI asr boshlarigacha ) G`afur G`ulom nomidagi nashriyoti, Toshkent, 2004 – yil , 133-140 b.

<sup>32</sup> Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.

madaniyati taraqqiyotidagi muhim bosqich bo'lganini esdan chiqarmaslik lozim. Sharq uyg'onish davri tarafdarlarining ko'pchiligi bu nuqtayi nazarni e'tirof etadilar. Ammo ular sharqqa nisbatan renessans tiklanish, uyg'onish istilohini shartli ravishda ishlatalish mumkin deb hisoblaydilar. Ming yilliklar davomida turli sivilizatsiya va madaniyatlar, jahon savdo yo'llari chorrahasida joylashgan o'lkamiz hududida o'ziga xos bebahvo ma'naviy qadriyatlar va madaniyat mavjud bo'lgan. Ilg'or madaniyat, ilm - fan xalifalik hukmi davrida aynan yurtimiz hududida rivoj topgan bevosita Bag'dod xalifaligidagi musulmon uyg'onish davri, ilm - fan madaniyat taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Ulkan xalifalik hududida taraqqiyot darajasi turlicha o'lka va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o'rtasida tegishli munosabatlarning o'rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalari rivojiga turtki bo'ldi. Bu esa xalifalik xalqlari madaniyatining yuqori taraqqiy etishiga ham turtki bo'ldi. Taraqqiyot, shuningdek, al-kimyonni rivojiga keng yo'l ochadi. Ulkan xalifalik hududida arab tili nafaqat vosita tili balki ilm -fan tiliga ham aylandi. Shu davrda yaratilgan aksariyat ilmiy adabiyotlar arab tilida bitilar edi. Abbosiylar (750-1258) davrida yuqorida ta'kidlangan o'zgarishlar yanada taraqqiy etdi. Islom madaniyati, ilm turmush tarzi, urf-odat, madaniyat, me'morchilik sohalarida ko'proq sharqiy hududlar xususan Movarounnahrda namuna oldi, ko'p holatda Eron, Xuroson, Movarounnahr zaminidan chiqqan arboblardan xalifalik ijtimoiysiyoziy, iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynay boshladilar. Abbosiylar davrida yaratilgan ma'naviy boylikda ajdodlarimizning ulkan hissasi katta edi. 762-yili xalifalik poytaxti Damashqdan Bag'dodga ko'chdi. Tez orada Bag'dod xalifalik ilmiy markazga aylandi. Abbosiylar xalifalardan Xorun ar-Rashid (786-809), ayniqsa Al-Ma'mun (813-833) nafaqat ilm fanga hayrixohlik bilan qaradilar, balki uning rivojiga ham homiylik qildilar. [1, 446 b.] Xorun ar-Rashid davrida Bag'dodda tashkil etilgan kutubxonada ko'plab noyob kitoblar jam etilib, boshqa tillardagi adabiyotlarni tarjimonlar arab tiliga o'girar edilar. Al-Ma'mun hukmronligi davrida ilm-fan sohasiga homiylik yanada kuchaydi. Tabobat, falsafa, astronomiya, matimstika fanlariga oid yunon, suriya sanskrit pahlaviy, xorazm tillaridagi asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Al-Ma'mun diniy ilmlar, falsafa aniq fanlar bilan qiziqqan va o'zi ham ular bilan muntazam shug'ullangan. Uning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron va Marvdan "Bayt ul-hikma"ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar tushgan. Shu tariqa xalifalik poytaxti Bag'dodda "Bayt ul-hikma" ("donishlar uyi") - "halifa ma'mun akademiyasi tashkil topdi. Ilm markazida olimlaring aksariyati Xuroson, Movarounnahr, Baqtriyva Farg'onadan bo'lgan. Bizning davrimizgacha IX - XII asrlar madaniyati, ilm - fan va falsafiy tafakkur robojiga doir anchagina manbalar yetib kelgan. Masalan, Yoqut al-Hamaviy (1179 - 1229) "Irshod al-arib ila ma'rifat al-adib" asarida IX - XII asrlarda Markaziy Osiyo va Xurosonda yashagan. Mashhur va iste'dodli fan va madaniyat arboblari haqida, jumladan Mahmud ibn Aziz al-Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad Abul-Fadi, Ahmad ibn Muhammad Abul-Husayn al-Xorazmiy, Hasan ibn al-Muzaffar Abu-Ali, Ali ibn-Iraq, Abu-Yaqub as-Sakkociy (Xorazmdan), Muhammad ibn Muhammad al-Muhammad al-Xorazmiy kabinadib va faylasuflar haqida batafsil ma'lumotlarni beradi. [1, 447-449 b.] Shu tariqa aksariyat O'rta Osiyo zaminidan chiqqan olimlar qo'li bilan arab

tildagi ilm - fan yuzaga keldi. Yevropada keyinchalik katta xatoga yo'l qo'yilib, ularning barchasini "arab olimlari" deb atashgan edi. "Bayt ul - hikma" da yunon fani, hind - sanskrit madaniyatini o'rganildi, tibbiyot, astranomiya, matematikaga oid adabiyotlar tarjima qilindi, ularning ba'zilariga sharh yozildi, zamonaviy algebra, geometriya, optika asoslari yaratildi, kimyo fani juda taraqqiy topdi. Akademiya nafaqat tarjima va tahlil ishlari bilan, balki ilmiy asnodagi ekspeditsiyalarni ham uyushtirgan. Shu davrda nafaqat poytaxt Bag'dod balki Kat, Marv, Buxoro, Samarcand, Balx va boshqa O'rta Osiyo hududlaridagi shaharlarda ham ilm - fan keng taraqqiy topa boshlagan. Islom dini Qur'on va hadislardagi ta'limotda ilmga intilish, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham egallashga imkoniyatini namoyon qildi. Bu esa o'z navbatida oddiy aholi ichida ham xat - savod chiqarish, badiiy adabiyotdan boshlang'ich ma'lumot olish, islom diniga oid bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lish, afsona, rivoyat, doston, ertaklardagi qahramonlarni madh etish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Rasmiy doirada ilm - fan, ma'rifatni qo'llab - quvvatlash mazkur soha vakillari obro' - e'tiborini nihoyatda yuksak mavqega erishuviga sabab bo'ldi. Islom dinining birlashtiruvchi kuchi tufayli ilm - fan va madaniyat bobida ulkan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. IX - XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. IX - X asrlarga kelib Movarounnahr hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladи. Buxoro, Samarcand, Gurganj va Marv kabi shaharlar ilm - fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojana boshladи. Yoqut al - Hamaviy "Mo'jam al - buldon" asarida shunday yozadi: " Movarounnahr eng ko'rkam, eng unumdar va xazinasi ko'proq o'lkalardandir. Aholisi esa yaxshilikka va saxovatga rag'batli chaqirgan kishiga kamtarlik bilan muomila qiluvchi, qo'llarida borini baham ko'rvuchilardir. Agar bir xonadonda bir kechada yuz, ikki yuz yoki ko'proq odamlar ot ulovlari bilan mehmon bo'lsa, ulovlarga yem - xashak, o'zlariga taom va ko'rpa to'shaklar ham topish mumkin edi. Uy egalari esa bu narsa doimiy odat bo'lganligi uchun hech qiyalmasdilar.<sup>33</sup>

Movarounnahr aholisining ko'pchiligi o'z mablag'larini bog' - rog' barpo qilishga, yo'llarni ta'mirlashga sarf qilishga odatlanganlar. Ko'rkalikda esa butun dunyoda Buxorodan go'zal joy yo'q". [1, 448 b.] Yuqorida ko'rib o'tilganidek, IX-XII asr boshlarida O'rta Osiyoda Somoniylar, Qoraxoniyilar, G'aznaviyilar, Saljuqiyilar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surdilar.bu davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqeい va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptagin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. O'rta Osiyo hukmdorlari ahli bilan yaqinlashib, mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z

<sup>33</sup> Firdavs Ulug'bek o'g'li, S. (2023). XIX ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA BUXORO VA ROSSIYA MUNOSABATLARIKA DOIR NASHR ETILGAN TARIXIY MANBALAR: 2-SON 1-TO'PLAM AVGUST 2023 yil. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi , 2 (1), 29-37.

saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlar, turki sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni toplashga odatlandilar. Saroya jaib etilgan olim va shoirlar, kutubxonalardagi nodir qo'lyozma asarlar bilan mag'rurlanadilar. Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda O'rta Osiyodadan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz soni bu davrga kelib ko'paya bordi. Bag'dod shahri sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda "Bayt ul -hikma"- ("donisandlar uyi") sharqning o'ziga xos fanlar akademiyasi tashkil etilgan edi. [4, 136- 138 b.] Bunga monand xolda X asr oxirida Xorazmda ham Xorazmshoh Ma'mun davrida (995-997y). Donishmandlar uyi -"Baytlar ul -hikma -"Ma'mun akademiyasi "(Xorazm akademiyasi)tashkil topdi. Bu ikki ilm o'chog'ida sharqning mashhur va ma'lum olim-allomalari tahsil olganlar ular orasida Ahmad Farg'oniy, AlXorazmiy, Beruniy, ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.<sup>34</sup> Xulosa: Ushbu maqola nafaqat Sharq balki G'arb mamlakatlarida vujudga kelgan uyg'onish davri tarixidan bayon etiladi. O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarida nisbatan yuksalish davri bo'ldi. Bu davrda arab tilining keng yoyilishi ham bilimlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ko'pchilik olimlar faylasuflar shu davrda ijod qilishgan. Ulkan xalifalik hududida taraqqiyot darajasi turlicha o'lka va xalqlarning bir davlatga birlashuvi ular o'rtasida tegishli munosabatlarning o'rnatilishi, savdo sotiqning rivojlanishiga olib keldi. Rasmiy doirada ilm - fan, ma'rifatni qo'llab quvvatlash mazkur soha vakillari obro'e'tiborini nihoyatda yuksak mavqega erishuviga sabab bo'lgan.<sup>35</sup>

### **Xulosa:**

IX-XII asrlardagi Uyg'onish davri O'rta Osiyo xalqlari tarixida alohida o'rin tutadi. Bu davr quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

1. Ilmiy meros: Bu davrda yaratilgan ilmiy asarlar nafaqat O'rta Osiyo, balki butun dunyo ilm-fani rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab ilmiy kashfiyotlar va nazariyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.
2. Madaniy yuksalish: Me'morchilik, san'at, adabiyot va hunarmandchilikning yuksak darajada rivojlanishi natijasida bebaho madaniy meros yaratildi.
3. Ta'lim tizimi: Madrasalar va ilmiy markazlar tizimi shakllanib, yuqori saviyali ta'lim tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizim keyingi davrlarda ham ta'lim sohasida muhim ahamiyat kasb etdi.
4. Xalqaro aloqalar: O'rta Osiyo olimlari va mutafakkirlarining asarları arab, fors va lotin tillariga tarjima qilindi, bu esa jahon sivilizatsiyasining rivojiga katta hissa qo'shdi.
5. Ilmiy maktablar: Turli sohalarda ilmiy maktablar shakllanib, ular keyingi avlod olimlarining yetishib chiqishiga zamin yaratdi.

Bu davr merosi bugungi kunda ham:

- Ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda

<sup>34</sup> Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O'zbekiston Tarixi Toshkent «IqtisodMoliya» 2006 – yil. 134-144 b.

<sup>35</sup> Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

- Yoshlarni ilm-fan va madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o'yamoqda
- Milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda
- Zamonaviy ilm-fan va madaniyat rivojiga ilhom bermoqda

Xulosa qilib aytganda, IX-XII asrlardagi Uyg'onish davri O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi eng yorqin sahifalardan biri bo'lib, bu davr merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyatga ham ega. Bu davrda yaratilgan ilmiy va madaniy boylik insoniyat sivilizatsiyasining rivojiga qo'shilgan bebafo hissa sifatida e'tirof etiladi.

Bu davr tajribasi ko'rsatadiki, ilm-fan va madaniyat rivoji uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganda, jamiyat misli ko'rilmagan yutuqlarga erishishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda bu davrni o'rganish va undan saboq olish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.S.Sagdullayev. O`zbekiston tarixi. VneshinVestprom. Toshkent. 2019-yil, 445- 455 b.
2. R.Murtazayev. O`zbekiston tarixi. Toshkent 2001-yil, 154-158 b. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference 85PAGE
3. Firdavs Ulug'bek o'g'li, S. (2023). XIX ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA BUXORO VA ROSSIYA MUNOSABATLARIGA DOIR NASHR ETILGAN TARIXIY MANBALAR: 2-SON 1-TO'PLAM AVGUST 2023 yil. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi , 2 (1), 29-37.
4. B.J. Eshov, A.A.Odilov. O`zbekiston tarixi. Toshkent, 2014-yil, 267 – 292 b.
5. A.R.Muhammadjonov O`zbekiston tarixi ( IV – XVI asr boshlarigacha ) G`afur G`ulom nomidagi nashriyoti, Toshkent, 2004 – yil , 133-140 b.
6. Firdavs Ulug'bek o'g'li, S. (2023). O'RTA OSIYONI O'RGANISH, XIX ASRDA XIVA XONLIGINING TOSHQI IQTISODIY ALOQALARI: 2-SON 1- TO'PLAM AVGUST 2023 yil. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi , 2 (1), 11-18.
7. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. Vatan tarixi. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2010- yil. 220-265 b.
8. Q.Ulmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O'zbekiston Tarixi Toshkent «IqtisodMoliya» 2006 – yil. 134-144 b.
9. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报(自然科学版), 48(8).
10. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

11. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.

12. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. Academic research in educational sciences, 3(1), 68-75.

13. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.

14. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).

15. Матякубов, Р., Урмонов, С., Касимова, Х., & Каримов, Ш. (2020). Гидрирование дифурфурлиденацетона на палладиевых катализаторах. Universum: технические науки, (3-2 (72)), 37-39.

16. Abdullayeva, U., & Urmonov, S. (2022, October). WAYS OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ENVIRONMENTAL EDUCATION BY SOLVING ISSUES RELATED TO ECOLOGY IN CHEMISTRY LESSONS. In Conference Zone (pp. 69-71).